

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

SOTSILOGIYDA IJTIMOY MUHOFAZA TUSHUNCHASI VA O‘ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOY HIMOYA TIZIMLARI FAOLIYATI

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi sotsiologiya yo‘nalishi

4 kurs talabasi Eshnazarova Mehriban

Ilmiy rahbar: sots.f.n.dotsent Ibragimova N.Yu

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiologiyada ijtimoiy muhofaza tushunchasining shakllanishi va uning ommalashishiga turtki bo‘lgan sabablar bayon qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida axolini ijtimoiy himoya qilish tizimining faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy qatlam, ijtimoiy muhofaza, o‘zini-o‘zi boshqarish, inson omili, fuqaro, mahalla, kambag‘allik, kam ta‘minlanganlik, ijtimoiy siyosat.

Taraqqiyot mantig‘i milliy davlatchilikni shakllantirish va boshqarishda demokratik islohotlarni amalga oshirish va bu borada fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash masalasi ustuvor vazifalarga aylandi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish davrning asosiy talabi, adolatli huquqiy davlat qurishning negizi hamdir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi hamda rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti davomida ishlab chiqarish kuchlari o‘rtasidagi mutanosiblik, mehnatni tashkillashtirish shakllari, tegishli davlat, millatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-madaniy xususiyatlari, an‘analari, turmush tarziga bog‘liq holda sodir bo‘ladigan jarayon hisoblanadi.

Insonlar uchun qulay muhit yaratish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, kam ta‘minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish, fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini ta‘minlash sohasida faoliyat yurituvchi davlat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalari, muassasalar va jamoat tashkilotlari; bandlikni ta‘minlash va mehnatni muhofaza qilish aholining ijtimoiy himoyasi, ish haqi va daromadlarini tartibga solish, fuqarolarni uy-joy bilan ta‘minlash, fuqarolarning mulkiy huquqlarini tartibga solish, moddiy xizmat ko‘rsatish va nogironlar va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj boshqa fuqarolarni ta‘minlash bilan shug‘ullanadi. [1].

Ijtimoiy himoya tushunchasi XX asrning 90-chi yillarida keng ommalashgan tushuncha bo‘lib, ushbu tuzilma aholini ijtimoiy himoya qilish aholining sog‘lig‘ini saqlash, ta‘lim, madaniyat, savdo, transport, dam olish va sog‘lomlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish va amalga oshirishning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kafolatlarini ta‘minlashga qaratilgan tizim deb talqin qilingan [2].

Ko‘pchilik olimlar tomonidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan aholini ijtimoiy himoya siyosati tushunchasiga neoliberal yondashilgan. Aholi daromadlarining sezilarli darajada tabaqalanishi, ish haqi va pensiyalarning xarid qobiliyatining pasayishi, ishsizlik muammosining ortishi, bolalarning qarovsizligi va etim bolalarning ortib ketishi, nogironlik, umuman ijtimoiy farovonlikning beqarorligi bilan

tavsiflanadi. Demografik vaziyat sezilarli darajada o'zgarib, qariyalar sonining yillik o'sishi bilan birga keldi. Ijtimoiy sohani saqlash bo'yicha byudjetga uning korxonalar balansidan davlat mulkiga o'tkazilishi hisobiga muammolar keskin ortdi.

Ijtimoiy himoya zamonaviy davlatlarning alohida ijtimoiy instituti sifatida ijtimoiy ishonchning ko'rsatkichi, jamiyatning har bir a'zosi munosib rivojlanishining ijtimoiy kafolati va ijtimoiy xavf-xatarlar yuzaga kelgan taqdirda tirikchilik manbasini saqlab qolish usulidir [3].

“Ijtimoiy himoya” atamasining to'liq ma'nosida ayrim tafovutlar mavjud. Ko'pincha, ilmiy nashrlarda va adabiyotlarda ijtimoiy himoya, asosan, aholining eng kam ijtimoiy himoyalangan qatlamlariga nisbatan moddiy yordam bilan bog'liq tushuntiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya nafaqat moddiy farovonlik, balki iqtisodiy mustaqillik, shaxsning ijtimoiy mavqei, salomatligi va ruhiy qulayligini ta'minlaqaratilgan tizimdir.

Sotsiologiyada ijtimoiy himoya tushunchasi va muammosiga turlicha qarashlar shakllangan. Jamiyatda o'z qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, fanning asoschilaridan E.Dyurkgeym (1858-1917)ning fikricha, “Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar ham yuzaga kelmoqda» [5]. Buni u anomiya hodisasi bilan izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun Dyurkgeym jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sotsiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo (1880-1949) ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiya individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi [6]. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bizningcha, yolg'iz shaxsning mustaqil holda hayotiy muammolarini hal qilish imkoniyatiga ega emasligi uni sotsiumning ajralmas qismiga aylantiradi hamda uning salbiy ta'siridan himoalanmaganlik hissini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy himoya tushunchasini bir qancha fanlarning tadqiqotlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Masalan,

– **sotsiologlar** ijtimoiy himoyani insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta'minlash tizimi deb biladilar;

– **demograflar** buni mamlakatdagi demografik vaziyatni saqlab qolish, millatning zarur farovonligi va salomatligini ta'minlashga yordam beradigan tizim sifatida qaraydilar;

– **iqtisodiyotda** ijtimoiy himoya aholini moddiy resurslar bilan ta'minlash, kambag'allikning oldini olish, shuningdek, ishsizlik, nogironlik yoki unga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra turmush tarzini yo'qotish holatlarida shaxsni qo'llab-quvvatlash huquqi nuqtai nazaridan o'rganiladi [4].

Aholini ijtimoiy himoya qilish ijtimoiy boshqaruv tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, u jamiyat farovonligiga, unda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasida bu tushuncha mahalla tizimini yo'lga qo'yish natijasida 1992 yili o'z fenomeniga ega bo'ldi. Bugungi kunda ushbu tizimning aniq belgilangan doirasiga ega bo'lib, amalga oshirish mexanizmlari tobora bir-biri bilan bog'liq uzviylikni hosil qilib bormoqda. Natijada ijtimoiy himoya tizimining o'zini-o'zi boshqarish tushunchasi kengayib, uni amaliy tashkil etishda keng ko'lamli yondashish ishlari olib borilmoqda. Masalan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida

mahalla tizimi orqali faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugun yangi O'zbekistonda mahalla tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Inson" ijtimoiy himoya agentligi orqali faoliyat olib bormoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga nisbatan bir-birini istisno qiladigan ikkita yondashuv chegaralarini aniq tartibga solish lozim. Birinchi yondashuv davlat shaxsni himoya qilishga majburdir. Ikkinchi yondashuv - inson o'zini himoya qilishi kerak. Faqatgina ushbu yondashuvlar o'rtasida ustuvorlikni belgilash hamda "Davlat – inson" tizimida mas'uliyat darajasini aniqlash orqali ijtimoiy himoyaning konstitutsiyaviy asoslari, shuningdek, uni amaliyotda qo'llash shakllari va tartibi nazariyasini ishlab chiqish mumkin. Ijtimoiy himoyaning asosiy vositalaridan biri barcha mehnatga layoqatli fuqarolarning mustaqil ravishda daromad olish imkoniyati (mehnat qilish huquqini ta'minlash) bo'lishi kerak.

Shuningdek, 2023-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319 sonli qarori ishlab chiqildi. Qarorga asosan, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko'rsatish, aholining og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish, shuningdek, ijtimoiy himoyaning manzilliligi va samaradorligini oshirish hamda aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida 2023 yil 15 oktyabrdan boshlab dastlab 28 ta tuman (shahar)da eksperiment tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy xodimlar guruhlaridan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishning yangi tizimi joriy qilindi.

Ushbu tizimning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

* og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi;

* ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish rejalarini ishlab chiqiladi;

* individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga muvofiq ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning ko'rsatilishini tashkil qilish, shuningdek, zarur hollarda individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga tegishli tuzatishlar kiritib boriladi;

* ichki resurslarni, shu jumladan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'ngillilarni (qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, volontyorlar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish hamda ularning mazkur sohadagi faoliyatini muvofiqlashtiriladi;

* aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar to'g'risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha tushuntirish berib boriladi.

Bunda, davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishda ijtimoiy xodimlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalash tizimining mahalla tizimidan "Inson" ijtimoiy himoya agentligiga o'tkazilishi axoli o'rtasida boqimandalik kayfiyatini bartaraf etishga qaratiladi, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlari oqsoqollari tomonidan keng tus olayotgan korrupsion holatlar davlat nazoratiga o'tishni ko'zlaydi. Shuningdek, sotsiologiyada inson omili va uni ijtimoiy himoya qilish zarurati global jamiyatda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalari to‘g‘risida”gi yangi tahrir O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. – T., 1999. №5 – 289b.
2. Xusanova X.T. O‘zbekistonda axolini ijtimoiy muhofazalashning tartibga solinishida mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruvning roli: Sots. fanlari nomz.dis... – T., O‘zMU. 2009. – 31b.
3. Пронина Л.И. Повышение эффективности социального обеспечения / - М.: Экономика, 1990. – С. 38-42.
4. Шатрова А.Л. Социальная защита – понятие и смысл // Молодой ученый. – М, – 2009. № 8(8). –С. 95-97. <https://moluch.ru/arxive/8/571/>
5. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 40 с.
6. Mayo E. The social problems of industrial civilization. –London, 1945. –P. 59.